**UDK: 94(575.3):331.01** **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a125**

# IKKINCHI JAHON URUSHI ARAFASIDA MEHNAT INTIZOMI (Buxoro viloyati)

# ТРУДОВАЯ ДИСЦИПЛИНА НАКАНУНЕ ВЕЛИКОЙ ОТЕЧЕСТВЕННОЙ ВОЙНЫ (Бухарская область)

# LABOR DISCIPLINE ON THE EVE OF THE GREAT PATRIOTIC WAR (Bukhara region)

**Alimova Mohichehra Muzafarovna**[1]

[1]**Alimova Mohichehra Muzafarovna** - Buxoro muhandislik-texnologiya instituti ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi.

***Annotatsiya***

*Mazkur maqola urush arafasida (1940–yil) butun mamlakatda kuchaytirilgan mehnat intizomiga bag‘ishlangan. Xalq, jamoat va davlat mulkini noqonuniy o‘zlashtirish, spekulyatsiya, chayqovchilik (olib-sotarlik) qilishga qarshi choralar ham kuchaytirilganligi davriy matbuotga asoslanib ko‘rsatib berilgan.*

***Аннотация***

*Статья посвящена усилению трудовой дисциплины по всей стране накануне войны (1940 г.). По материалам периодических изданий было показано, что меры против спекуляции и за незаконное присвоение народного, общественного и государственного имущества также были усилены*

***Abstract***

*The article is devoted to the strengthening of labor discipline throughout the country on the eve of the war (1940). Based on materials from periodicals, it was shown that measures against speculation and for the misappropriation of national, public and state property were also strengthened.*

***Kalit so‘zlar:*** *Mehnat intizomi, ish kuni, jazo, majburiy xizmat, spekulyatsiya, artel, mehnat ta’tili, tartib-intizom, hukm.*

***Ключевые слова:*** *Трудовая дисциплина, рабочий день, наказание, обязательная служба, спекуляция, артель, отпуск, дисциплина, приговор.*

***Key words****:Labor discipline, working day, punishment, compulsory service, speculation, artel, vacation, discipline, sentence.*

## KIRISH

SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1940–yil 26-iyundagi farmoniga asosan mamlakatda ishchilar va xizmatchilar uchun ishdan tashqari vaqtda majburiy ishlab berish joriy etildi. Katta yoshdagilar uchun ish kuni olti kunlik ish haftasida 11 soatgacha uzaytirildi. Haqiqatda esa u 12-14 soatga yetar edi. Mehnat ta’tiliga chiqish bekor qilindi. 1941–yildan esa mehnat intizomini buzganlar uchun jazo choralari keskin qo‘yildi. Korxonalardan o‘zboshimchalik bilan ketib qolganlar 5 yildan 8 yilgacha muddat bilan qamoqqa hukm qilinadigan bo‘ldi [1].

Butun mamlakatda, shu jumladan, O‘zbekistonda ham ishlab chiqarishning barcha sohalarida ichki tartib-intizom kuchaytirilgan, qonun-qoida buzilgan joyda bunga nisbatan qattiq nazorat va tegishli jazo choralari ham amalga oshirilgan.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Zarafshon vohasidagi tuman, shahar va qishloqlarda ham mehnat intizomini nazorat qilish kuchaytirilib, mahalliy organlar tomonidan tegishli choralar ko‘rib borilgan. Masalan, 1940–yilning avgustida Buxoro shahridagi 105-bo‘lim xalq sudi Aksiyanovning jinoiy ishini ko‘rgan. Aksiyanov mudirlik qilgan 9-oshxonada xalq talabiga javob bermaydigan sifatsiz ovqatlarning pishirilishi, oshxonaning bir necha kun yopib qo‘yilishi va shu kabi Aksiyanovning 1 kun ishga kelmay progul qilganligi aniqlangan. Sud progulchi Aksiyanovni 6 oy majburiy xizmat, 15 foiz ish haqidan davlat hisobiga o‘tkazishga, shuningdek, ushbu oshxonaning ishchisi A.Kimni ham 45 minut progul qilgani uchun 3 oy majburiy xizmat va 15 foiz ish haqini davlat hisobiga olib qolishga hukm chiqardi. Shuningdek, Buxoro shahar 103-bo‘lim xalq sudi Oblshvey xizmatchilaridan Layshev, Nikolay Fyodorovich, Maslovskiylarning ishlarini ko‘rib chiqqan. Ma’lum bo‘lishicha, 1940–yilning 7-iyul kuni «progul» qilingani aniqlangan. Progulchi Layshevni 3 oy majburiy xizmat va ish haqidan 30 foizini

davlat hisobiga o‘tkazish, shuningdek, Nikolay Fyodorovich va Maslovskiylarning proguli ham aniqlanib, 3 oydan majburiy xizmatga hukm chiqqan [2].

1940–yilning avgust oyida Buxoro shahridagi 102-bo‘lim xalq sudi tomonidan bir qancha mehnat intizomiga doir ishlar ko‘rilgan. Masalan, shahar aloqa bo‘limining telegraf texnigi Bizgen, o‘t o‘chirish qo‘riqchisi Yo‘lbarsov, sartarosh Rustamovlarning ishida Bizgenning 8-9 iyul kuni, Rustamovning esa 16-iyulda 25 minut ishdan proguli aniqlanib, sud Bizgen va Yo‘lbarsovni 6 oyga majburiy xizmat va xizmat haqlaridan 25 foizini davlat foydasiga undirishga hukm qildi. Shuningdek, Rustamovning birinchi marta progul qilganini e’tiborga olib, uni ogohlantirishga hukm qilgan [3].

Ishlab chiqarishdagi mehnat intizomini nazorat qilishni kuchaytirish bilan birga, xalq, jamoat va davlat mulkini noqonuniy o‘zlashtirish, spekulyatsiya, chayqovchilik (olib-sotarlik) qilishga qarshi choralar ham kuchaytirilgan edi. Masalan, 1940–yilning avgustida Buxoro shahridagi omborxonaning sobiq mudiri Gurgov bir velosipedning pokrishkasini 55 so‘m, velosipedga ishlatiladigan vtulkasini 15 so‘mdan sotib savdogarlik qilgani uchun qamoqqa olinadi. Uning uyi tintuv qilinganida 120 metr qora rangli sim, 5 kg oq rangli sim, 800 metr sariq rangli sim chiqqan. Shundan so‘ng savdogarning ishi shahar sudiga oshirilgan [4].

Mehnat intizomini buzish, unga rioya qilmaslik, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi tizimida ko‘p sodir etilgan edi. Masalan, Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi Qavola Mahmud qishloq sovetidagi «2-besh yillik» nomli kolxozda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish qoidalari qo‘pol ravishda buzilib kelgan. Jumladan, 130 gektar paxta maydonidan faqat 63 gektarigagina mineral va 19 gektariga mahalliy (go‘ng) o‘g‘it berilgan.

Bu kolxozda paxta zararkunandalari bilan kurash olib borish vazifasi ham «unutilgan». Keltirilgan zaharli kimyoviy moddalar kolxozning omborida bosilib yotgan. Kolxozning ximizatori bo‘lgan Rahmat Tursunovning boshqa ishga o‘tishi munosabati bilan mineral sepish qoidasi buzilgan. Qo‘l bilan mineral o‘g‘itni sepish oqibatida 0,25 gektar maydondagi g‘o‘za zarar ko‘rgan (qurigan). Bu jamoa xo‘jaligida mehnat intizomi bo‘shligidan 2-brigadasida shu yilning 20-30 iyul kunlarida 70 ish kuni progul qilingan. Jumladan, Maqsad Turdieva, Robiya Turdieva va Zumrad Ismatovalar 1 oyning o‘zida 15 kundan progul qilishgan [5].

Beshkent, Xo‘jaxayron qishloq sovetidagi «Birlashgan kuch» kolxozining raisi Toshev, kolxozning hosilot soveti raisi Toshpo‘latovlar «soxta» kolxozchilarni o‘z qanotlari ostiga olishib, ularni qonunga zid holda himoya qilib kelishgan. Natijada mehnat intizomi bo‘shashgan. Kolxoz a’zosi Tojieva 1940–yilning yanvar-avgust oylarida 122 kun progul qilgan, kolxozning 3-brigadasi a’zosi Niyoz Qodirova 3 oy, Roza Tosheva 112 kun, Primqulova 82 kun, Olimova 68 kun, Ernazarova 102 kun, Mavlonova 122 kun, Boboeva 113 kun progul qilishgan bo‘lsa ham ularga nisbatan chora ko‘rilmagan [6].

Umuman olganda, qishloq xo‘jalik bilan bog‘liq mehnat qilish jarayonlarini nazorat qilishda, boshqarishda bir xillik bo‘lmagan, mehnatni tashkil etish, mehnat kunini qayd etib borish, oylik ish kunlarini hisobga olib borish, mehnatga haq to‘lash, daromadlarni taqsimlash, mehnat kuni minimumini bajarilishi, jamoa a’zolarini zaruriy sanoat mollari bilan ta’minlash kabi masalalarda kamchiliklar ham ko‘p bo‘lgan. Masalan, Buxoro tumani Shergiron qishloq sovetidagi «Voroshilov» nomli kolxozda kolxozchilarning mehnat kunini hisobga olishda ko‘p xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan. Jumladan, kolxozchilardan M.O‘rinova 6 oy mobaynida 9 mehnat kuni, S.Islomova 9 mehnat kuni, Karimova 13 mehnat kuni, Qullieva 3 mehnat kuni ishlashgan. Ular kunning ko‘p vaqtini o‘zining shaxsiy ishi bilan o‘tkazishgan. Buning oqibatida kolxozning 9 gektar g‘o‘zasi sug‘orilmagan, 6 gektar g‘o‘zasi oziqlantirilmagan, 12 gektar g‘o‘zasiga ishlov berilmay, qurib qolgan. Bundan ham yomoni, shu tumanning «Kunjiqal’a» qishloq sovetidagi «Stalin» nomli kolxoz a’zolaridan bir guruhi 6 oyda bir kun ham ishga chiqishmagani oqibatida 8 gektar chopiq qilinmagan, 26 gektar maydon sug‘orilmay qolgan. Tuman ijrokomi va boshqa mutasaddilar bu holatni bartaraf etishmagan [7].

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Mehnat intizomini nazorat qilish va uni boshqarishda kamchiliklar, xatoliklar sanoat ishlab chiqarishida ham kam emas edi. Masalan, Konimex tuman partiya komiteti instruktori J.Murodov 1940–yil 17 avgust kuni ishga kelmay 8 soat progul qilgan. Shu tuman Posyolkoviy Sovetining raisi Valieva shu sovetda ishlovchi Is’hoqovaga qonunsiz ravishda 7-iyuldan 12-iyulgacha ta’til bergan va Is’hoqova ta’tildan 12 kun kechikib kelganini yashirib kelgan. Bu masala Konimex tuman partiya

komitetida ko‘rilib, boshlang‘ich partiya tashkilotining qaroriga asosan Murodov va Valievani partiyadan o‘chirilgan. Tuman xalq sudi ularni ko‘rib chiqib bir yil qamoq jazosiga hukm qilgan [8].

Shofirkon tuman omonat kassasining bosh hisobchisi Anton Aleksandrovich 1940–yil 25 avgust kuni o‘zboshimchalik qilib, ishini tashlab ketgan. U avval ham 12 soat progul qilgani uchun 4 oyga majburiy xizmatga hukm qilingan edi. Tuman xalq sudi Aleksandrovichni o‘zboshimchalik bilan ishni tashlab ketgani uchun, uni yana 1 oy qamoq jazosiga hukmi qildi [9].

Buxoro shahar kommunal xo‘jalik bo‘limi montaj bo‘limi boshlig‘i bo‘lgan Jeleznyakov idoraning 59-sonli buyrug‘i asosida 1 oylik mehnat ta’tiliga chiqqan edi. 1 avgustdan ta’tili tugab, ishga chiqishi kerak edi. Ammo u 14 avgustgacha dam olib, keyin ishga chiqqan. 14 kunlik progul bilan hech kim qiziqmagan. Partiyaviy yo‘l bilan ham, ish intizomi bilan ham unga hech qanday chora ko‘rilmagan. Shahar kolxozining boshlig‘i ham «partkomga berdim, bo‘ldi» deb pinagini buzmagan. Aslida bu holat SSSR Oliy Sovet Prezidiumining 1940 yil 26 iyundagi Farmoniga zid edi [10].

Ushbu Farmonga rioya etmaslik holatlari ham bo‘lib turgan. Karmanadagi 2-MTS direktori Balashev jamoasida mehnat intizomini yaxshi yo‘lga qo‘yish o‘rniga o‘zi buni qo‘pol ravishda buzib kelgan, ishga 20-30 minut kechib kelishni odat qilib olgan edi. 1940 yilning 8 avgustida MTS agronomii Davidov 2 soat kechikib kelgan. Direktor Balashev uni «o‘z arizasiga muvofiq» ishdan bo‘shatgan. 10 avgustda MTS buxgalteri o‘zboshimchalik bilan ishni tashlab ketgan. Direktor esa uni ham “o‘z xohishiga ko‘ra” ishdan bo‘shatgan [11].

Buxoro shahar paxta tozalash zavodi direktori intizom to‘g‘risidagi Farmon chiqqanidan 2 oy keyin ishga progul qilib kelgan 24 kishining ishini Viloyat prokuraturasiga yuborgan. Ammo ulardan 9 kishining ishi ko‘rib chiqilib, tegishli jazoga tortilgan, qolganlari esa «esdan chiqqan». Ammo zavodning o‘t o‘chirish qo‘riqchisi Sobit Muhamedov 1 kun ishga kelmagani uchun ishi prokurorga yuborilgan [12].

## XULOSA

Ko‘p tashkilotlarda rahbarlar mehnat intizomi talablarini to‘la-to‘kis bajarmasdan, xodimlarni «ayab», ularni o‘z himoyasiga olishgani haqida manbalarda yetarlicha materiallar berilgan. G‘ijduvon tumanidagi «Qizil to‘quvchi» artelida ham farmonga to‘la rioya etilmagan. Artelning bosh buxgalteri Budsik 1940–yilning 19-avgustida ichib, mast bo‘lib bir kun ishga chiqmagan, 10 sentabrda 1 soat kechikib progul qilgan. Buni ko‘rib bila turib, artel raisi Hoji Po‘latov ko‘zbo‘yamachilikka qo‘l uradi, soxta akt tuzadi, ammo u akt uning portfelida oylab «dam olib» yotardi. Shuningdek, progul sodir etgan Olimjon Ayubov ishdan bo‘shatilgan edi. Biroq artel raisi unga qonunsiz bir oylik ta’til berib yuborgan. Bunday holatlar sanoat ishlab chiqarishida ham, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida ham uchrab turardi. Shunisi e’tiborni o‘ziga tortadiki, progulchilarning ko‘pchiligini yevropaliklar tashkil etgan [13]. Ma’lum ma’noda mahalliy xalq vakillari o‘rtasida bunday holatlarning nisbatan kamroq uchrashi islom omili va milliy mentalitet bilan bog‘liq bo‘lgan. Chunki xo‘jayinga, ish beruvchiga, jamoaga nisbatan beodoblik qilish, ko‘z bo‘yamachilikka qo‘l urish, birovning haqiga xiyonat qilish musulmon olami uchun yot bo‘lgani ham ayni haqiqat edi.

Buxoro shahridagi to‘qimachilik fabrikasida 1940–yilning 26-iyunidan 24-avgustigacha mehnat intizomini buzuvchilar 41 kishini tashkil etib, shundan 21 kishi progul qilgan, 10 kishi kechikib kelgan, 5 kishi o‘zboshimchalik bilan ishdan ketib qolgan, 2 kishi takroriy mehnat intizomini buzgan. 2 oyda 41 kishidan 17 nafarining ishi sudda ko‘rib chiqilgan edi. Buni respublika va viloyat miqyosida ko‘rilganda katta raqamlar bo‘ladi [14].

1939–yilda jahon urushining boshlanishi, 1939–1940–yillarda sobiq Ittifoqning ham ma’lum darajada urush harakatlariga tortilishi va fashizmning bosqinchilik urushi ko‘lankasi xavf solib turgan bir vaqtda, mamlakat ichkarisida, shu jumladan, O‘zbekistonda va Zarafshon vohasida ham tartib-intizom, ichki tartib g‘oyatda muhim ahamiyat kasb etardi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида. 2-китоб. Т. Шарқ, 2000 й, 439-440 бет.
2. «Бухоро ҳақиқати», 1940 йил 5 август.
3. «Бухоро ҳақиқати», 1940 йил 15 август.
4. «Бухоро ҳақиқати», 1940 йил 16 август.
5. «Бухоро ҳақиқати», 1940 йил 15 август.
6. «Бухоро ҳақиқати», 1940 йил 29 август.
7. «Бухоро ҳақиқати», 1940 йил 27 август.

8. «Бухоро ҳақиқати», 1940 йил 30 сентябрь.
9. «Бухоро ҳақиқати», 1940 йил 30 сентябрь.
10. «Бухоро ҳақиқати», 1940 йил 28 август.
11. «Бухоро ҳақиқати», 1940 йил 25 сентябрь.
12. «Бухоро ҳақиқати», 1940 йил 26 август.
13. Бухоро ҳақиқати, 1940 йил 25 сентябрь.
14. Бухоро ҳақиқати, 1940 йил 25 сентябрь.
15. Jurakulovich, S. J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(10), 1160-1164.